

GRADATSIYANING KONSEPTUAL SFERASI VA UNING BOSHQA KONSEPTUAL SFERALAR BILAN O'ZARO ALOQASI

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna- dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(Phd) Andijon davlat chet tillari instituti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.018>

Annotatsiya.: Ma'lumki, lisoniy gradatsiya tadqiqotlarida gradual shkala muammosi alohida o'rin tutadi. E. Sepir gradatsiyaga «ma'lum bir shkalaga mos tartibga solish» sifatida ta'rif bergan. Bizningcha, shkala gradatsiyaning grafik jihatdan tavsirlangan kognitiv (fikrlash) tuzilmasi, ya'ni obrazli-sxematik modellaridir. Shu tariqa, tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan gradatsiya shkalalarining barcha turlari “shkala” obraz- sxemasining turlari sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Kalit so'zlar: obraz sxemalar, shkala, jismoniy harakat, ortish (kattalashish) va kamayish (kichrayish), Gradatsiya kontseptual sferasi.

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ СФЕРА ГРАДАЦИИ И ЕЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ С ДРУГИМИ КОНЦЕПТУАЛЬНЫМИ СФЕРАМИ

Махмудова Нилуфархан Равшановна,
доцент, доктор философии (PhD) по филологическим наукам Андигжанский государственный институт иностранных языков

Аннотация: как известно, проблема градуальной шкалы занимает особое место в исследованиях языковой градации. E. Сепир определил градацию как «расположение, соответствующее определенной шкале». На наш взгляд, шкала-это графически изображаемая познавательная (мыслительная) структура градации, т. е. образно-схематические модели. Таким образом, все виды градуационных шкал, разработанные лингвистами, можно рассматривать как типы образно - схемной “шкалы”.

Ключевые слова: изображение схемы, масштаб, физическое движение, увеличение (увеличение) и уменьшение (уменьшение), градация концептуальной сферы.

THE CONCEPTUAL SPHERE OF GRADATION AND ITS INTERACTION WITH OTHER CONCEPTUAL SPHERES

Mahmudova Nilufarkhan Ravshanovna,
Associate Professor, Doctor of philosophy in philology (Phd) Andijan State Institute of foreign languages

Abstract: As is well known, the problem of the graded scale occupies a special place in studies of linguistic gradation. E. Sepir defined gradation as «an arrangement corresponding to a certain scale». In our opinion, a school is a graphically depicted cognitive (mental) structure of graduation, i.e. figurative and schematic models. Thus, all types of gradation scales developed by linguists can be considered as types of figurative - schematic “scale».

Keywords: diagram image, scale, physical movement, magnification (increase) and decrease (decrease), gradation of the conceptual sphere

KIRISH. Obraz-sxemalar umumiy ko'rinishda bazaviy mavhum tuzilmalardan iborat bo'lishi mumkin, ular yordamida dunyoni “tasavvur etish”, “kontseptuallashtirig”, “kategorialashtirish” sodir bo'ladi va ular turli-tuman kognitiv semantik jarayonlarda alohida rol o'ynaydi[1.25]; bizning hissiy qabul qilishimizga asoslangan tajriba va bilimlarimizni tashkil etuvchi tuzilmalar[2.16]. J. Lakoff, obrazlarning sxematik modellari (sxema-obrazlar) metaforik va metonimik modellar bilan bir qatorda kategorizatsiya jarayonlarini ta'riflash uchun qo'llanilishi mumkinligini qayd etadi va ularni yo'nalish, uzun ingichka shakllar yoki konteyner kabi obrazlarning sxematik tasavvurlari sifatida ta'riflaydi[6.333] M. Jonson sxema-obrazlarni inson ongining elementar kognitiv tuzilmalari sifatida ko'rib chiqadi, ular uning sensomotor tajribasi natijasida yaxlit obraz (geshtalt) sifatida shakllanishini ta'kidlaydi[3.17]

Shkala gradual kontseptlarni tartibga soladi. Bunda “ortish”, “kamayish”, “ko’proq”, “kamroq” kabi kontseptlar harakatchan hisoblanadi, chunki shkalada istalgan joyni egallashi mumkin. Shuni qayd etish mumkinki, “ortish” va “kamayish” kontseptlari o’zining o’zgaruvchan tabiatiga ko’ra odatda butun shkalani yoki, hech bo’lmaganda, uning katta qismini qamrab oladi. Bu shu bilan izohlanadiki, ularning shkaladagi joylashuvini belgilovchi me’yor ham nisbatan o’zgaruvchan bo’ladi.

“Katta daraja”, “kichik daraja”, “eng katta daraja”, “eng kichik daraja” kontseptlarini tartibga soluvchi me’yor shkalada muayyan o’rinni egallaydi. Shu munosabat bilan ushbu kontseptlar nisbatan qat’iy hisoblanadi: shkalaning me’yordan bir tomonida “katta daraja” va “eng katta daraja”, boshqa tomonida esa “kichik daraja” va undan keyin “eng kichik daraja” joylashgan. Bu kontseptlarning me’yor va bir-biriga nisbatan boshqacha joylashtirish mumkin emas. Biroq, shkala yanada kichikroq bo’linmalarga ajralishi mumkin, chunki gradatsiya mohiyatan cheksiz bo’linadigan jarayon. Shu tariqa, turli hisob nuqtalari (o’zgaruvchan va qat’iy me’yor) tegishli gradual kontseptlarning turlicha maqomini belgilaydi: o’zgaruvchan va qat’iy kontseptlar shular jumlasidan.

Shkalalarnin obrazli-sxematik modellaridan tashqari, gradatsiyaning sferasining tuzilishida metaforik modellar muhim rol o’ynaydi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Kognitiv (kontseptual) nazariya nuqtai nazaridan metafora “bilishning zarur vositasi”, kognitiv jarayon sifatida talqin etilib, “usiz yangi bilimni olish mumkin emas” va u “tilni anglashda miya, ong va madaniyatni birlashtiradi”[7.358]. J. Lakoff va M. Djonsonga ko’ra, metafora kundalik hayotimizning ajralmas qismidir[6.416]. Metaforaning namoyon bo’lish sohasi til bilan chegaralanmaydi: bizning tushunchaviy tizimimiz metaforik hisoblanadi, shu munosabat bilan «bizning fikrlashimiz, kundalik tajribamiz va xulqimiz ko’p darajada metaforaga asoslanadi». Bizningcha, har qanday metafora (qanday kontseptsiya doirasida ko’rib chiqilmasin) tabiatiga ko’ra kontseptual, chunki voqelikni anglash jarayonini aks ettiradi.

J. Lakoff va M. Djonsonga ko’ra metaforaning mohiyatini bir kontseptual sohani boshqa kontseptual soha orqali anglash jarayoni sifatida ta’riflaydilar[7.358]. Ya’ni metaforizatsiya jarayonida ikki kontseptual sferaning kesishuvi sodir bo’ladi: muayyan elementlar, bilimlarni bir kontseptual sfera – manba sohadan (source domain), boshqa kontseptual sferaga – maqsad (nishon) sohasiga (target domain) ko’chirish orqali sodir bo’ladi[4.204]. Boshqa terminologiyada o’zaro ta’sirga kirishuvchi sohalar donor (donor domain) va retsipient (recipient domain) nomini olgan. Shu tariqa, metaforani hosil qilish jarayonida bir kontseptual sohaning bir qismi boshqa kontseptual soha bilan kesishadi. Ko’p hollarda metaforik ko’chirish obraz-sxemalar negizida amalga oshiriladi: dastlabki soha tuzilishi maqsadli soha tuzilishiga “quriladi”, “moslashadi”. J. Lakoffning “invariantlik tamoyiliga” muvofiq, metaforik ko’chirish manba sohaning kognitiv tuzilmasi maqsad sohasining ichki tuzilmasiga mos kelsagina saqlanib qoladi[4.78]. Metaforizatsiya manba sohaning tegishli obrazli-sxematik modelini ko’chirish orqali maqsadli sohani qayta shakllantirish vositasida amalga oshiriladi[1.31].

Shuni ta’kidlash lozimki, metonimik kognitiv modellar ham manba va maqsad sohalari asosida shakllanadi, biroq, metaforizatsiyadan farqli o’laroq, metonimik ko’chirish bir kontseptual soha doirasida amalga oshiriladi.

Gradatsiyaning kontseptual sohasini ko’rib chiqar ekanmiz, gradatsiyaning qanday kognitiv asosda qanday kontseptual sohalar bilan o’zaro ta’sirga kirishishi va metaforizatsiya jarayonida gradatsiyaning kontseptual sohasida qanday obraz-sxematik shakllanishini aniqlash zarur.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, metaforizatsiya jarayonida gradatsiyaning kontseptual sohasi turli-tuman kontseptual sohalar bilan yaqinlashib, ularni ikki katta sohaga birlashtirish mumkin: real va areal dunyo sohaslariga. Real dunyo sohasini fizik harakat/makonda ko’chirish, pertseptiv belgilar, fizik chegara, materiya holatlari, ob-havo hodisalari, fauna, kosmos, insonning patologik fiziologik holatlari, o’lim kabi kontseptual sohalar tashkil etadi. Areal dunyo sohasi inson hissiyotlari, uydirma, hayolot, madaniy tasavvur kabi kontseptual sohalarini birlashtiradi.

Gradatsiya kontseptual sohasining ushbu kontseptual sohasilar bilan yaqinlashuvi kognitiv asosga ega va gradual hodisalarni anglashning asosiy jarayonlarini aks ettiradi: jismonan qabul qilish (ko'rish, sensomotor, sezish orqali qabul qilish), emotsional qabul qilish, gnoseologik va madaniy tasavvurlar, asotsiatsialash va tasavvur qilish shular jumlasidandir. Gradatsiya kontseptual sohasini aytib o'tilgan kontseptual sohasilar bilan o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Gradatsiya jismoniy harakat/ makonda ko'chish kontseptual sohalari bilan aloqani namoyon etadi. "Ortish (kattalashish)" va "kamayish (kichrayish)" o'zgaruvchan gradual kontseptlarni belgilash uchun ushbu manba sohadan elementlarning "harakat" integral komponenti negizida ko'chishi sodir bo'ladi. Harakat yo'nalishiga qarab ushbu kontseptual sohalarda kichik bo'lgan sohalarni farqlash mumkin. Jumladan, gradatsiya kontseptual sohasi bilan o'zaro ta'sirlashadigan harakat / vertikal ko'chish sohasini ajratish mumkin: ko'tarilmoq, sakrab turmoq, oshirmoq, tushmoq, pasaymoq va h.k. Boshlang'ich soha "tepa – past" yoki "vertikal" obraz-sxemalar yordamida tuzilgan, u xuddi gradatsiya shkalasiga birikib, tasavvurda vertikal joylashuv ko'rinishini oladi: yuqoriga yo'nalish – belgining o'sishini, pastga yo'nalish – belgining kamayishini ko'rsatadi.

J. Lakoff va M. Djonson bu kabi metaforalarni yo'nalishga oid metafora deb nomlaganlar. Ularning negizida – jismoniy (ko'rish orqali) qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari mujassam: konteynerga ko'proq modda yoki predmetlar qo'shilsa, uning ichidagi narsa darajasi oshadi, buni ko'z bilan ko'rib, qayd etiladi [O'sha erda]. Shu tariqa, shkala bo'yicha tepaga harakatlanish belgi darajasini ortishi (oshishi) bilan izohlanadi:

His parents bought him in because he'd had a high fever. (Sunday magazine MM16, 2009); Durust, man otangizga birga ketalmasligimni, charlarni uch-to'rt kun kutib qolishimni bir necha vaqt ayt olmay yurdim va nihoyat otangiz ketishka ruxsat so'ray boshlag'ach, otam orqaliq uzrimni aytirdim, bas, bunda qanday uyatsizlik bo'lsin, gumonimcha isit mangiz qattig'ushlag'an ko'rinadir va bu telbalarcha maktubingizni isitma orasida yozg'on o'xshaysiz..» (Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)

Armour's share price jumped up, we don't expect it to stay there. (ARMOUR Residencial REIT, inc. 2018);

Ayniqsa, urush boshlanib, paxta xomashyosiga ehtiyoj kuchayib, jahon bozorida paxtaning narxi keskin oshib ketgan holda shirkatlar tomonidan narxlarning hamon past darajada to'lanishi yigitlarning g'azabini yanada oshirib yubordi. (Mansurxo'ja Xo'jaev, Shermuhammadbek Qo'rboshi)

The move paid off, that ear he hit a record twenty-nine home runs. (Eyewitness to history, 1927);

Ishlarim yurishgandan yurishib ketdi. Ўзим хурсанд, кайфим чоғ, ашула айтганим-айтган. Баҳоларим ҳам жойида — нукул беш! (Худойберди Тўхтабоев, Сариқ девни миниб).

Pastga harakatlanish tegishli belgining kamayishi bilan izohlanadi: US birth rates plunge to record lows, with economic ramifications. (South China Morning Post, 2018);

Ammo zaharli ximikatlarni, yuqori toksik moddali birikmalarni keng qo'llash atrof-muhitga tuzatib bo'lmaydigan darajada talafot etkazdi, suv havzalari ifloslanishi, foydali bo'g'imoyoqlilar va boshqa jonivorlar soni keskin kamayishi, qishloqlarda ekologik vaziyat keskinlashuvi va aholi orasida kasalliklar o'sishiga olib keldi. (A.Sh.Xamraev, B.A.Xasanov, B.A.Sulaymonov, A.G.Kojevnikova. O'simliklarni biologik himoya qilish vositalari(darslik));

Doctor insisted on lowering her blood pressure.(The Washington Post, 2018);Ushbu maqoladan siz oziq-ovqat mahsulotlarini qon bosimni pasaytirishga nima yordam berayotganini bilib olasiz. Shuningdek, maqolaning har bir qismida gepotonik bemorlar uchun bosimni kamaytiradigan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish mumkinmi (ba'zi oziq-ovqatlarni iste'mol qilish mumkin, ba'zilari o'rtacha, ba'zilari taqiqlangan) (pastela.ru).

Gradatsiya kontseptual sferasi harakat/uzoqlashish/yaqinlashish kabi jismoniy harakat yo'nalishi kabi kichik soha bilan o'zaro ta'sirlashadi: ketmoq,. Yaqinlashish yo'nalishidagi harakatlanish kontseptlari daraja oshishini belgilash uchun gradatsiya kontseptual sferasiga birikadi, uzoqlashish yo'nalishidagi harakatlanish kontseptlari darajaning kamayishini kontseptuallashtirish uchun qo'llaniladi. Boshlang'ich hisob nuqtani shakllantiruvchi «Manba

– yul – maqsad» obraz sxemasi, gradatsiya shkalasiga tengalshtiriladi: manba belgining boshlang'ich darajasi (hisob nuqtasi) bilan bog'lanadi, yo'l – darajaning ortish/kamayish tomoniga, maqsad (yakuniy manzil) belgining yakuniy darajasi bilan izohlanadi.

Masalan: But Barnaby delayed beyond all precedent. The visitor's dinner was served, removed, his wine was set, the fire replenished, the hearth clean swept; the light waned without, it grew dusk, became quite dark, and still no Barnaby appeared. (Theodore Dreiser, *An American tragedy*, 1925);

Lojuvard, musaffo osmonga tig'dek sanchilib turgan cho'qqining eng uchida subhi kozib chog'i paydo bo'lgan qabrdan hech kimsa xabar topmay, u bo'z tepachaga aylandi, abadulabad tog'larga singishib ketdi va uning so'ylanmagan minglab-milyonlab afsonalarining biriga aylandi. (Said Ahmad, *Quyosh fasli*).

Bunda qaytdi indikatori emotsional holatning harakatini (yo'l) avvalgi kontekstda belgilangan xavotir (manba)dan xotirjamlik (maqsad) tomon harakatini namoyon qiladi. Keyingi misol darajaning pasayishi va harakatning kamayishi kontseptlarining uzoqlashuv tomon yo'nalishini ko'rsatadi: The afternoon came on wet and somewhat misty: as it waned into dusk, I began to feel that we were getting very far indeed from Gates head: we ceased to pass through towns; the country changed; great grey hills heaved up round the horizon: as twilight deepened, we descended a valley, dark with wood, and long after night had overclouded the prospect, I heard a wildwind rushing amongst trees. (Charlotte Bronte, *Jane Eyre*);

Bolam, anchadan beri yopgan non emagandirsan, berikel, issiqqina non ebol. Ona shunday dedi sukunat qorong'ulikga singib ketdi. (Said Ahmad. *Suvlar oqib ketdi*).

Singib ketdi indikatori "qorong'ulik" belgisining kamayishini va butunlay yo'q bo'lib ketishini – nol darajasi tomon yo'nalishini belgilaydi. Ko'rib chiqiladigan kontseptual sferaning o'zaro ta'sirlashuvi, bizningcha, quyidagicha kognitiv izoh topadi: uzoqlashish tomon yo'nalishida harakatanuvchi, ko'chuvchi ob'ekt ko'z bilan ko'rganda kichrayadi, yaqinlashayotgan ob'ekt esa kattalashadi.

Gradatsiya, shuningdek, harakat/yakuniy manzilga etib borish sohasi bilan aloqani namoyon etib, u ham "manba-yo'l-maqsad" obraz-sxema yordamida tashkil etiladi: etib bormoq, erishmoq va h.k. Daraja harakati (ortish/kamayish) ob'ektning jismoniy harakati/ko'chishi (yo'l) bilan moslashadi, chegaraviy daraja – etib kelish (maqsad) nuqtasi bilan bog'lanadi:

The album brought the brand unprecedented success in the underground scene, selling in excess of 100,000 copies. (Wikipedia);

Men «omad» degan so'zga ishonmayman, lekin «omad kelishi» rost bo'lsa, shu safar mening omadim yurishgan ekan! Menga ayni o'zim tilab yurgan savollar tushgan edi: birinchi savol — sakkizinchi sinf programmasidan Nyuton qonuni, ikkinchisi qarshilik kuchi, uchinchisi osongina bir misol!. (Odil Yoqubov, *Muqaddas*)

XULOSA

Gradatsiya kontseptual sferasi pertseptiv belgilar (sezgi organlari bilan qabul qilinadigan belgilar) kontseptual sferasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, pertseptiv belgilar gradual, turli darajada namoyon bo'lishga qodir. Bunda pertseptiv belgining harakati darajasi va yo'nalishi gradatsiya darajasi va yo'nalishi bilan moslashadi: ko'proq darajada (shkalaning ortish tomond tomondagi qismi) namoyon bo'luvchi belgining nomi graduallikning katta darajasini nomlash uchun qo'llaniladi: baland (o'lcham haqida) → baland (daraja haqida), vaholanki, kichik darajada namoyon bo'luvchi (shkalaning kamayish tomondagi qismi) belgining nomi graduallikning kichik darajasini belgilash uchun qo'llaniladi: past (o'lcham haqida) → past (daraja haqida). Ushbu sohalarning kesishuvi gradatsiyani (graduallikni) anglash, tushunish qonuniyatlarini aks ettiradi: avval bevosita sezgi organlari orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni anglash sodir bo'ladi, ko'p hollarda esa o'lchash mumkin bo'lgan belgilarni ham, so'ng bu belgilarning gradualligi aniqlanadi (masalan, bir xil belgiga turli darajada ega voqelik ob'ektlarini taqqoslash, solishtirish jarayonida).

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Clausner T.C., Croft W. *Domains and image schemas // Cognitive Linguistics*. – 1999. – Vol. 10, № 1. – P. 1-31.; Акуленко В.В. *Лексические средства выражения интенсивности*

качественного признака в современном русском языке (на материале имен прилагательных): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01 / Киев. гос. ун-т им. Т.Г. Шевченко. – Киев, 1987. – 25 с.

2. Ibarretxe-Antunano I. What's Cognitive Linguistics? A New Framework for the Study of Basque – P. 1-16. <http://languages.londonmet.ac.uk/ciltrans/coglin.pdf>.

3. Johnson M. *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Reason and Imagination*. – Chicago, L.: The Univ. of Chicago Press, 1987. – 233p.; Галич Г.Г.

4. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 2003. – P.204.

5. Градуальные характеристики качественных прилагательных, глаголов и существительных современного немецкого языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / Ленингр. гос. ун-т им. А.А. Жданова. – Л., 1981. – 17с.

6. Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификаторов // Новое в зарубежной лингвистике: Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс. – 1988. – Вып. 23. – С. 12-51.; Булыгина Т.В. О границах и содержании прагматики // Изв. АН СССР. Сер. лит. и яз. – 1981. – Т. 40. – № 4. – С. 333-342.

7. Макормак Э. Когнитивная теория метафоры // Теория метафоры. – М.: Прогресс. – 1990. – С. 358-386.